
№6 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№6 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ

Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Равшанов Лочинбек Уринович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD

Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoyirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

O‘SMIRLIK DAVRIDA INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA IJTIMOIY TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK MOHIYATI

Mirsidikova Aziza Mirvohidovna
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smirlik davrida inklyuziv ta’lim muhitida ijtimoiy tolerantlikning psixologik mohiyati, shakllanish mexanizmlari va rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi inklyuziv ta’lim sharoitida barcha o‘quvchilarning individual xususiyatlari, imkoniyatlari va ehtiyojlarini hurmat qilish, ular o‘rtasida teng huquqli munosabatlarni shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi o‘smirlik davrida ijtimoiy tolerantlikning psixologik xususiyatlarini ochib berish hamda uning rivojlanishiga xizmat qiluvchi omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Natijada empatiya, ijtimoiy qabul qilish, tengdoshlar bilan hamkorlik va psixologik xavfsizlik tolerantlikni shakllantiruvchi muhim mexanizmlar ekanligi asoslangan. Tadqiqot xulosalari inklyuziv ta’lim muhitida psixologik-pedagogik ishlarni takomillashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, inklyuziv ta’lim, ijtimoiy tolerantlik, psixologik xususiyatlar, empatiya, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy qabul qilish, tengdoshlar munosabati, psixologik xavfsizlik, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy identifikatsiya, hamkorlik, bag‘rikenglik, kamsitish, ijtimoiy-emotsional rivojlanish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СОЦИАЛЬНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. В статье теоретически анализируются психологическая сущность социальной толерантности в условиях инклюзивного образования в подростковом возрасте, механизмы её формирования и социально-психологические факторы развития. Актуальность исследования обусловлена необходимостью уважения индивидуальных особенностей, возможностей и потребностей каждого обучающегося, а также формирования равноправных отношений в инклюзивной образовательной среде. Цель исследования заключается в раскрытии психологических особенностей социальной толерантности подростков и определении факторов, способствующих её развитию. В исследовании использованы методы теоретического анализа

научной литературы, сравнительного анализа, обобщения и системного подхода. В результате установлено, что эмпатия, социальное принятие, сотрудничество со сверстниками и психологическая безопасность выступают важными механизмами формирования толерантности. Полученные теоретические выводы имеют практическое значение для совершенствования психолого-педагогической работы в условиях инклюзивного образования.

Ключевые слова: подростковый возраст, инклюзивное образование, социальная толерантность, психологические особенности, эмпатия, социальная адаптация, социальное принятие, отношения со сверстниками, психологическая безопасность, межличностные отношения, социальная идентификация, сотрудничество, толерантность, дискриминация, социально-эмоциональное развитие.

THE PSYCHOLOGICAL ESSENCE OF SOCIAL TOLERANCE IN AN INCLUSIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT DURING ADOLESCENCE

Abstract. This article theoretically examines the psychological essence of social tolerance in inclusive educational environments during adolescence, its formation mechanisms, and the socio-psychological factors influencing its development. The relevance of the study is determined by the need to respect individual characteristics, abilities, and educational needs of all students and establish equal relationships within inclusive education. The purpose of the research is to identify the psychological characteristics of adolescent social tolerance and determine the factors contributing to its development. The study employs theoretical analysis of scientific literature, comparative analysis, generalization, and a systematic approach. The findings indicate that empathy, social acceptance, peer cooperation, and psychological safety are important mechanisms in developing tolerance. The theoretical conclusions have practical significance for improving psychological and pedagogical support and fostering positive interpersonal relationships in inclusive educational environments.

Keywords: adolescence, inclusive education, social tolerance, psychological characteristics, empathy, social adaptation, social acceptance, peer relationships, psychological safety, interpersonal relationships, social identity, cooperation, tolerance, discrimination, socio-emotional development.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimida har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, ta’lim olish uchun teng

imkoniyatlarni yaratish hamda o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta’lim nafaqat ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiruvchi pedagogik yondashuv, balki o‘quvchilarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhit sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta’lim barcha o‘quvchilarning, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning umumiy ta’lim jarayonida ishtirok etishi, o‘z salohiyatini namoyon qilishi va jamoaviy munosabatlarda faol qatnashishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga yo‘naltiriladi. Bunday muhitning samaradorligi faqat moddiy-texnik sharoitlar yoki o‘quv dasturlarining moslashtirilishi bilan belgilanmaydi. O‘quvchilar o‘rtasidagi psixologik munosabatlar, o‘zaro qabul qilish, hurmat, hamkorlik va ijtimoiy tolerantlik ham muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, o‘smirlik davrida ijtimoiy tolerantlikni shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Chunki ushbu davrda o‘smirning o‘ziga bo‘lgan munosabati, tengdoshlar orasidagi mavqei, guruhga mansublik hissi va boshqalar tomonidan qabul qilinishga bo‘lgan ehtiyoji kuchayadi. Shu bilan birga, tashqi ko‘rinish, jismoniy imkoniyatlar, o‘quv faoliyatidagi farqlar va boshqa individual xususiyatlar asosida tengdoshlarni baholash holatlari ham yuzaga kelishi mumkin.

Shu sababli inklyuziv ta’lim muhitida ijtimoiy tolerantlikning psixologik mohiyatini o‘rganish o‘smirlarning sog‘lom ijtimoiylashuvi, o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish va kamsitish holatlarining oldini olishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi - o‘smirlik davrida inklyuziv ta’lim muhitida ijtimoiy tolerantlikning psixologik mohiyatini ochib berish, uning shakllanish mexanizmlari va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash.

Tadqiqotning vazifalari:

- ijtimoiy tolerantlik tushunchasining psixologik mazmunini tahlil qilish;
- o‘smirlik davrining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ochib berish;
- inklyuziv ta’lim muhitida tolerantlikni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlarni aniqlash;
- ijtimoiy tolerantlik rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish;
- tolerantlikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti - inklyuziv ta’lim muhitida o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanish jarayoni.

Tadqiqot predmeti - o‘smirlik davrida ijtimoiy tolerantlikning psixologik xususiyatlari, shakllanish mexanizmlari va rivojlanish omillari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi ijtimoiy tolerantlikning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari hamda inklyuziv ta’lim muhiti bilan o‘zaro bog‘liqlikda tizimli tahlil qilish, uning rivojlanishida empatiya, ijtimoiy qabul qilish va psixologik xavfsizlikning ahamiyatini nazariy jihatdan asoslashda namoyon bo‘ladi.

MAVZUNING O’RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Ijtimoiy tolerantlik muammosi jahon psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va pedagogika fanlarida keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, G. Allportning xurofot va guruhlararo munosabatlarga oid ilmiy qarashlari insonlar o‘rtasidagi farqlarni qabul qilish, stereotiplarni bartaraf etish va ijobiy munosabatlarni shakllantirish masalalarini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [3].

H. Tajfel va J. Turner tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identifikatsiya nazariyasida shaxsning o‘zini muayyan ijtimoiy guruhga mansub deb his qilishi, guruhlararo munosabatlar va ijtimoiy taqqoslash jarayonlarining xulq-atvorga ta’siri yoritilgan [4]. Mazkur nazariya o‘smirlarning tengdoshlar guruhidagi mavqei, guruhga mansublik hissi va boshqa insonlarga munosabatini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega.

T. F. Pettigrew va L. R. Tropp tomonidan olib borilgan tadqiqotlar guruhlararo ijobiy muloqot va hamkorlikning stereotip hamda xurofotlarni kamaytirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi [5]. Ushbu ilmiy qarashlar inklyuziv ta’lim muhitida turli individual xususiyatlarga ega o‘quvchilar o‘rtasidagi mazmunli hamkorlikni tashkil etish zarurligini asoslaydi.

U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi shaxs rivojlanishini oila, ta’lim muassasasi, tengdoshlar guruhi va keng ijtimoiy muhit bilan o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida izohlaydi [6]. Mazkur yondashuv o‘smirlarning tolerant munosabatlari faqat individual psixologik xususiyatlar bilan emas, balki ular yashaydigan va ta’lim oladigan ijtimoiy muhit bilan ham belgilanadi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasida o‘smirlik davri identifikatsiya va rollar chalkashligi bilan bog‘liq muhim rivojlanish bosqichi sifatida talqin qilinadi [7]. Ushbu davrda o‘smirning o‘zligini anglashi, ijtimoiy mavqeini belgilashi va tengdoshlar bilan munosabatlari shaxsiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan tolerantlik tamoyillari va inklyuziv ta’limga oid konseptual yondashuvlarda insonlarning xilma-xilligini hurmat qilish, teng imkoniyatlarni ta’minlash va ta’limdagi to‘siqlarni bartaraf etish muhim vazifalar sifatida belgilangan [1; 2]. UNICEF materiallarida ham barcha bolalarning

ta’lim jarayonidagi teng ishtiroki va ularning individual ehtiyojlarini hisobga olish inklyuziv ta’limning muhim sharti sifatida ko‘rsatiladi [8].

Ijtimoiy tolerantlik shaxsning boshqa insonlarning individual xususiyatlari, qarashlari, imkoniyatlari, ehtiyojlari va hayotiy tajribalaridagi farqlarni anglash hamda ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish qobiliyatini ifodalaydi. Psixologik nuqtayi nazardan, tolerantlik faqat boshqa insonlarga salbiy munosabatda bo‘lmaslik bilan cheklanmaydi. U shaxsning o‘z fikrlarini boshqalar bilan muvofiqlashtira olishi, turli nuqtayi nazarlarni tushunishga intilishi, nizolarni konstruktiv hal qilishi va ijtimoiy hamkorlikka tayyorligini ham qamrab oladi.

UNESCO tomonidan 1995-yilda qabul qilingan Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasida tolerantlik insonlarning xilma-xilligini hurmat qilish, qabul etish va qadrlash bilan bog‘liq tamoyil sifatida ta’riflanadi [1]. Ushbu yondashuv inklyuziv ta’lim uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy tolerantlikning psixologik tuzilmasini shartli ravishda uchta o‘zaro bog‘liq komponent orqali izohlash mumkin:

1. **Kognitiv komponent** - boshqa insonlarning xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlari haqidagi bilimlar, tasavvurlar hamda farqlarni anglash qobiliyati.
2. **Emotsional komponent** - boshqa insonlarga nisbatan hamdardlik, empatiya, hurmat va ijobiy hissiy munosabatning mavjudligi.
3. **Xulq-atvor komponenti** - tengdoshlar bilan hamkorlik qilish, o‘zaro yordam ko‘rsatish, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik va nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga tayyorlik.

Mazkur komponentlar o‘zaro uzviy aloqada rivojlanadi. Masalan, o‘quvchi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan tengdoshining imkoniyatlari haqida to‘g‘ri bilimga ega bo‘lishi mumkin, biroq bu bilim har doim ham ijobiy hissiy munosabat yoki amaliy yordamga aylanavermaydi. Shu bois inklyuziv ta’lim jarayonida bilim berish bilan bir qatorda empatiya, hamkorlik va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish ham zarur.

Ijtimoiy tolerantlikni shaxsning barcha xatti-harakatlarini shartsiz ma’qullash bilan tenglashtirmaslik lozim. Tolerant munosabat boshqalarning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilishni anglatadi, biroq zo‘ravonlik, kamsitish va huquqlarni buzishga befarq qarashni anglatmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, psixologik nazariyalar hamda xalqaro tashkilotlarning inklyuziv ta’limga oid konseptual materiallari o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish, tizimli yondashuv va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasining asosini ijtimoiy identifikatsiya, psixososial rivojlanish va ekologik tizimlar nazariyalari tashkil etdi. Olingan nazariy xulosalar ijtimoiy tolerantlikning psixologik komponentlari, o‘smirlik davrining rivojlanish xususiyatlari va inklyuziv ta’lim muhitining o‘zaro aloqadorligi asosida shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘smirlik davri shaxs rivojlanishidagi muhim bosqich bo‘lib, unda o‘zini anglash, mustaqil fikrlash, o‘ziga baho berish, ijtimoiy identifikatsiya va tengdoshlar bilan munosabatlar sezilarli darajada rivojlanadi. Ushbu jarayonlar ijtimoiy tolerantlikning shakllanishi uchun muhim psixologik zamin yaratadi.

Birinchidan, o‘smirlik davrida o‘zini anglash va o‘ziga baho berish jarayoni faollashadi. O‘smir o‘zining qobiliyatlari, tashqi ko‘rinishi, ijtimoiy mavqei va tengdoshlar orasidagi o‘rnini anglashga intiladi. O‘zini qabul qilish va o‘ziga nisbatan ijobiy munosabatning rivojlanishi boshqa insonlarning farqlariga ham hurmat bilan qarashni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Aksincha, o‘ziga ishonchsizlik yoki guruh tomonidan rad etilishdan qo‘rqish ayrim holatlarda boshqalarni kamsitish orqali o‘z mavqeini mustahkamlashga urinishga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, tengdoshlar guruhining ta’siri kuchayadi. O‘smirlar uchun do‘stlik, guruh tomonidan qabul qilinish va jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘lish muhim ehtiyojlardan hisoblanadi. Guruhda o‘zaro hurmat va hamkorlik qadrlansa, o‘smirlar tolerant munosabatlarni o‘zlashtirishga moyil bo‘ladilar. Aksincha, masxara qilish, chetlatish yoki kamsitish odatiy hol sifatida qabul qilinadigan muhitda salbiy munosabatlar mustahkamlanishi mumkin.

Uchinchidan, ijtimoiy va axloqiy tafakkurning rivojlanishi o‘smirga turli vaziyatlarni bir nechta nuqtayi nazardan baholash imkonini beradi. U asta-sekin xatti-harakatlarning sabablarini, insonlarning turlicha sharoitlarda yashashini va individual farqlarning mavjudligini chuqurroq anglay boshlaydi. Ta’lim jarayonida munozara, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va hamkorlikdagi topshiriqlarni tashkil etish ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, empatiya va hissiy o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘smir boshqa insonning his-tuyg‘ularini tushunishni, o‘zining salbiy reaksiyalarini nazorat qilishni va nizoli vaziyatlarda shoshilinch xulosa chiqarmaslikni o‘rgangan sari, ijtimoiy munosabatlarda konstruktiv xulq ko‘rsatish imkoniyati ortadi.

Demak, o‘smirlik davri ijtimoiy tolerantlikni rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq bu imkoniyatlardan foydalanish oila, maktab, pedagoglar, psixologlar va tengdoshlar guruhining hamkorligiga bog‘liq.

Inklyuziv ta’lim muhitining psixologik xususiyatlari.

Inklyuziv ta’lim muhitining asosiy xususiyati har bir o‘quvchining ta’lim jarayonida ishtirok etishi, individual ehtiyojlarining hisobga olinishi va jamoaning teng huquqli a’zosi sifatida qabul qilinishidir. Bunday muhitda o‘quvchilar o‘rtasidagi farqlar muammo sifatida emas, balki insoniy xilma-xillikning tabiiy ko‘rinishi sifatida anglanishi lozim.

Inklyuziv muhitning psixologik samaradorligi quyidagi shartlar bilan bog‘liq:

Psixologik xavfsizlik. O‘quvchi o‘z fikrini bildirish, savol berish va ta’lim jarayonida ishtirok etish vaqtida masxara qilinish yoki kamsitilishdan qo‘rqmasligi kerak. Psixologik xavfsizlik o‘quvchining o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga va jamoaga mansublik hissini rivojlantirishiga yordam beradi.

Ijtimoiy qabul qilish. Har bir o‘quvchining sinf jamoasida munosib o‘ringa ega bo‘lishi, tengdoshlari bilan muloqot qilishi va umumiy faoliyatda ishtirok etishi muhimdir. Faqat bir sinfda ta’lim olishning o‘zi ijtimoiy integratsiyani kafolatlamaydi. Haqiqiy inklyuziya o‘quvchining munosabatlar va hamkorlik jarayonlariga mazmunli jalb etilishini ham talab qiladi.

Individual farqlarni hisobga olish. O‘quvchilarning o‘rganish tezligi, muloqot usuli, jismoniy imkoniyatlari, hissiy ehtiyojlari va qobiliyatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Ta’lim jarayonining moslashuvchan tashkil etilishi barcha o‘quvchilarning faol ishtirok etishiga sharoit yaratadi.

Hamkorlik va o‘zaro yordam. Juftlikda ishlash, kichik guruhlar faoliyati va umumiy maqsadga yo‘naltirilgan topshiriqlar o‘quvchilarning bir-birini yaxshiroq tanishiga imkon beradi. Bunda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar faqat yordam oluvchi sifatida emas, balki umumiy natijaga hissa qo‘shuvchi teng huquqli ishtirokchi sifatida qaralishi kerak.

Kamsitishga qarshi munosabat. Pedagoglar masxara qilish, haqoratlash, chetlatish va boshqa shakllardagi tazyiqlarga nisbatan aniq va izchil munosabat bildirishlari zarur. Bunday holatlarning oldini olish o‘quvchilarning o‘zaro hurmatga asoslangan xulqini mustahkamlaydi.

UNESCOning inklyuziv ta’lim bo‘yicha yondashuvlarida ham barcha o‘quvchilarning ta’limdagi ishtirokiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish muhim vazifa sifatida ko‘rsatiladi [2]. Shu jihatdan inklyuziv muhitning psixologik mazmuni nafaqat o‘quvchilar xulqini, balki ta’lim muassasasidagi munosabatlar, pedagogik yondashuvlar va institutsional sharoitlarni ham qamrab oladi.

Ijtimoiy tolerantlikning shakllanish mexanizmlari.

O‘smirlarning inklyuziv ta’lim muhitida tolerant munosabatlarni shakllantirishi bir nechta o‘zaro bog‘liq psixologik mexanizmlar orqali kechadi.

Birinchisi - empatiya. Empatiya boshqa insonning hissiy holati, kechinmalari va ehtiyojlarini tushunishga intilish qobiliyatidir. Inklyuziv sinfda empatiyaning rivojlanishi o‘smirlarning bir-birining tajribasini tushunishi, yordamga ehtiyojni to‘g‘ri anglash va munosabatlarda ehtiyotkorlik bilan harakat qilishiga yordam beradi.

Empatiyani rivojlantirishda hayotiy vaziyatlarni muhokama qilish, badiiy asar qahramonlarining kechinmalarini tahlil etish va rolli o‘yinlardan foydalanish mumkin. Biroq o‘quvchilarni boshqa insonning tajribasini to‘liq bilaman deb o‘ylashga undamaslik lozim. Eng muhim ko‘nikma - taxmin qilish bilan cheklanmasdan, insonning o‘z fikri va ehtiyojlarini tinglashdir.

Ikkinchisi - ijtimoiy identifikatsiya. O‘smirning o‘zini sinf jamoasining teng huquqli a’zosi sifatida his qilishi boshqa o‘quvchilar bilan ijobiy munosabat o‘rnatishiga yordam beradi. Umumiy maqsad va qadriyatlar atrofida birlashish guruhlar o‘rtasidagi psixologik masofani kamaytirishi mumkin [4].

Uchinchisi - guruhlararo ijobiy muloqot va hamkorlik. Turli imkoniyat va xususiyatlarga ega o‘quvchilarning umumiy maqsad asosida hamkorlik qilishi o‘zaro tanishish, stereotiplarni qayta ko‘rib chiqish va ijobiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi [5].

To‘rtinchisi - ijtimoiy o‘rganish va taqlid. O‘smirlar kattalar va tengdoshlarining xatti-harakatlarini kuzatish orqali muayyan munosabat shakllarini o‘zlashtiradilar. Shu sababli pedagoglarning barcha o‘quvchilarga nisbatan hurmatli munosabati sinfdagi tolerantlik me’yorlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Beshinchisi - refleksiya va hissiy o‘zini boshqarish. O‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish, boshqalarning fikrini tinglash va o‘z hissiyotlarini nazorat qilish o‘smirning nizoli vaziyatlarda konstruktiv qaror qabul qilishiga yordam beradi.

Ijtimoiy tolerantlik rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.

Inklyuziv ta’lim muhitida ijtimoiy tolerantlikning shakllanishi turli omillar ta’sirida murakkablashishi mumkin. Ularni aniqlash va oldini olish ta’lim muassasasidagi psixologik muhitni yaxshilash uchun zarur.

Birinchi omil - salbiy stereotiplar va noto‘g‘ri tasavvurlar. O‘quvchilarning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan tengdoshlari haqidagi bilimlari cheklangan bo‘lsa, ular turli farqlarni noto‘g‘ri talqin qilishlari mumkin. Bunday holatda tushuntirish, ochiq muloqot va hamkorlikka asoslangan ta’lim ishlari muhimdir.

Ikkinchi omil - tengdoshlar bosimi. Ayrim o‘smirlar guruh tomonidan qabul qilinish maqsadida kamsituvchi hazillarga qo‘shilishi yoki boshqalarni chetlashtirishga qarshi fikr bildirishdan tiyilishi mumkin. Shu sababli sinfda ijobiy guruh me’yorlarini shakllantirish va o‘quvchilarning mustaqil axloqiy qaror qabul qilishini qo‘llab-quvvatlash zarur.

Uchinchi omil - pedagoglarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligi. Inklyuziv ta’limni tashkil etishda psixologik bilimlar, individual yondashuv, moslashtirilgan topshiriqlar va nizolarni boshqarish ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega. Pedagogning har bir o‘quvchiga nisbatan hurmatli munosabati sinfdagi umumiy ijtimoiy me’yorlarga ta’sir ko‘rsatadi.

To‘rtinchi omil - ijtimoiy chetlatish va tazyiq. O‘quvchini guruh faoliyatiga qo‘shmaslik, muntazam masxara qilish yoki uning imkoniyatlarini kamsitish psixologik xavfsizlikni buzadi. Bunday holatlarda maktab psixologi, sinf rahbari, pedagoglar va ota-onalar o‘zaro hamkorlikda vaziyatni aniqlashi va tegishli choralarni ko‘rishi lozim.

Beshinchi omil - oilaviy va ijtimoiy muhit ta’siri. Oilada boshqa insonlarga nisbatan hurmat, bag‘rikenglik va hamkorlik namunalari ko‘rsatilishi tolerantlikning rivojlanishiga yordam beradi. Aksincha, kamsituvchi munosabatlar odatiy hol sifatida namoyon bo‘ladigan muhit o‘smirning ijtimoiy qarashlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ushbu omillarni bartaraf etishda faqat o‘smirning xulqini o‘zgartirishga intilish yetarli emas. Ta’lim muassasasidagi qoidalar, pedagogik munosabatlar, o‘quv materiallari va ijtimoiy o‘zaro ta’sir imkoniyatlari ham takomillashtirilishi kerak. Bu holat Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi bilan hamohang bo‘lib, shaxs rivojlanishida turli ijtimoiy muhitlarning o‘zaro ta’sirini tasdiqlaydi [6].

Ijtimoiy tolerantlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik yo‘nalishlari.

O‘smirlarning ijtimoiy tolerantligini rivojlantirish tizimli, izchil va yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Bu jarayonda psixologik-pedagogik yondashuvlar bir-birini to‘ldirishi muhim.

Birinchidan, tolerantlikka yo‘naltirilgan sinf mashg‘ulotlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Mashg‘ulotlarda o‘zaro hurmat, shaxsiy chegaralar, teng huquqlilik, empatiya va kamsitishning oqibatlari muhokama qilinishi mumkin.

Ikkinchidan, hamkorlikdagi ta’lim usullaridan foydalanish zarur. Juftlik va kichik guruhlarda bajariladigan topshiriqlar o‘quvchilarning bir-birini tanishi, umumiy natijaga erishishi va o‘zaro yordam ko‘rsatishiga imkon yaratadi. Guruh vazifalari o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirilishi, lekin hech bir o‘quvchini doimiy ravishda passiv ishtirokchi sifatida qoldirmasligi kerak.

Uchinchidan, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish lozim. Faol tinglash, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, boshqalarning hissiyotlarini anglash, nizolarni boshqarish va yordam so‘rash ko‘nikmalari tolerant munosabatlarni kundalik xulqda namoyon etishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, maktab psixologining faoliyatini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Psixolog o‘quvchilar bilan individual va guruhiy mashg‘ulotlar o‘tkazishi, sinfdagi munosabatlarni o‘rganishi, tazyiq va chetlatish xavfini aniqlashi hamda pedagoglar va ota-onalarga maslahat berishi mumkin.

Beshinchidan, ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish zarur. Ota-onalar yig‘ilishlari, seminarlar va maslahatlar orqali inklyuziv ta’limning mazmuni, o‘zaro hurmat tamoyillari hamda bolalarda tolerantlikni shakllantirish usullari haqida tushuncha berish mumkin.

Oltinchidan, maktabda kamsitishga qarshi aniq qoidalarni joriy etish muhimdir. O‘quvchilar masxara qilish, haqoratlash, chetlatish va tazyiq holatlarida qanday yo‘l tutishni bilishlari kerak. Muammoni hal etishda jabrlangan o‘quvchining xavfsizligi, sha’ni va shaxsiy hayotiga hurmat birinchi o‘rinda turishi lozim.

Yettinchidan, tolerantlik rivojlanishini muntazam baholash zarur. Bunda o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari, hamkorlikdagi ishtiroki, tengdoshlar tomonidan qabul qilinishi va psixologik xavfsizlik haqidagi fikrlari o‘rganilishi mumkin. Baholash jarayoni o‘quvchilarni yorliqlash yoki bir-biri bilan salbiy tarzda taqqoslash uchun emas, ta’lim muhitini yaxshilash uchun qo‘llanilishi kerak.

Nazariy tahlil natijalari va istiqboldagi tadqiqot yo‘nalishlari.

O‘tkazilgan nazariy tahlil natijasida o‘smirlik davrida ijtimoiy tolerantlikning shakllanishi individual psixologik xususiyatlar, tengdoshlar munosabati va inklyuziv ta’lim muhitining o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Tahlil asosida ijtimoiy tolerantlikning rivojlanishida quyidagi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar ajratildi:

1. Kognitiv yo‘nalish - individual farqlarni anglash, noto‘g‘ri stereotiplarni qayta ko‘rib chiqish va boshqa insonlarning imkoniyatlari haqida to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirish.
2. Emotsional yo‘nalish - empatiya, hamdardlik, hissiy sezgirlik va boshqa insonlarning kechinmalariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.
3. Ijtimoiy yo‘nalish - tengdoshlar bilan hamkorlik, guruhga mansublik hissi va ijtimoiy qabul qilinishni rivojlantirish.
4. Xulq-atvor yo‘nalishi - o‘zaro yordam, kamsitishga qarshi munosabat, nizolarni konstruktiv hal qilish va teng huquqli muloqotni shakllantirish.

Mazkur yo‘nalishlar ijtimoiy tolerantlikni birgina bilim yoki ijobiy munosabat bilan cheklab bo‘lmasligini, uning shaxsning kundalik xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarida ham namoyon bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda o‘smirlarning tolerantlik darajasi bilan empatiya, ijtimoiy identifikatsiya, o‘ziga baho berish, sinfdagi psixologik xavfsizlik va

tengdoshlar tomonidan qabul qilinish o‘rtasidagi munosabatlarni empirik jihatdan o‘rganish maqsadga muvofiq.

Bunday tadqiqotlar doirasida quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish mumkin:

1. Inklyuziv va boshqa ta’lim muhitlarida o‘quvchilarning ijtimoiy qabul qilinishi va o‘zaro munosabatlarini taqqoslash.
2. Empatiyani rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarning tolerant munosabatlarga ta’sirini baholash.
3. O‘smirlarning kamsitish, stereotip va ijtimoiy chetlatishga munosabatini o‘rganish.
4. Oila, pedagoglar va tengdoshlar guruhining tolerantlik shakllanishidagi o‘zaro ta’sirini aniqlash.
5. Inklyuziv sinflarda psixologik xavfsizlik va guruhga mansublik hissini rivojlantirish bo‘yicha amaliy dasturlar samaradorligini tekshirish.

Empirik tadqiqot o‘tkazishda o‘smirlarning yosh xususiyatlariga mos psixodiagnostik metodikalardan foydalanish, ota-onalar va ta’lim muassasasining roziligi hamda tegishli axloqiy talablarni hisobga olish lozim. Natijalarni talqin qilishda o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inklyuziv ta’limning umumiy samaradorligi bilan bevosita tenglashtirib yubormaslik kerak.

Maqolaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, undagi nazariy xulosalar inklyuziv ta’lim muhitida o‘smirlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, hamkorlik, ijtimoiy qabul qilish va psixologik xavfsizlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda qo‘llanishi mumkin.

XULOSA

O‘smirlik davrida inklyuziv ta’lim muhitida ijtimoiy tolerantlikning psixologik mohiyati shaxsning individual farqlarni anglash, boshqa insonlarning qadr-qimmatini hurmat qilish, empatiya namoyon etish va tengdoshlari bilan konstruktiv munosabat o‘rnatish qobiliyatlarining rivojlanishida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Ijtimoiy tolerantlik ko‘p komponentli psixologik hodisa bo‘lib, uning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Ushbu komponentlarning uyg‘unligi o‘smirning boshqa insonlarga nisbatan hurmatli va konstruktiv munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.
2. O‘smirlik davrida o‘zini anglash, ijtimoiy identifikatsiya, tengdoshlar ta’siri va hissiy rivojlanish jarayonlari tolerantlikning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois mazkur yosh davrida ijtimoiy tolerantlikni maqsadli

rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik imkoniyatlardan samarali foydalanish zarur.

3. Inklyuziv ta’lim muhitida empatiya, ijtimoiy qabul qilish, guruhlararo hamkorlik, umumiy mansublik hissi va psixologik xavfsizlik tolerantlikning muhim rivojlanish mexanizmlari hisoblanadi.
4. Ijtimoiy tolerantlikning rivojlanishiga salbiy stereotiplar, tengdoshlar bosimi, ijtimoiy chetlatish, pedagoglarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligi va oilaviy muhitdagi munosabatlar ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu omillarni bartaraf etishda oila, ta’lim muassasasi va ijtimoiy muhitning hamkorligi muhimdir.
5. O‘smirlarda tolerantlikni rivojlantirish uchun hamkorlikdagi ta’lim, ijtimoiy-emotsional mashg‘ulotlar, empatiyani rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar, ota-onalar bilan ishlash va kamsitishga qarshi tizimli choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, inklyuziv ta’limning samaradorligi barcha o‘quvchilarning bir xil muhitda bo‘lishi bilangina emas, balki ularning mazmunli ishtiroki, tengdoshlari tomonidan qabul qilinishi va o‘zini xavfsiz his qilishi bilan ham belgilanadi. Shu sababli ijtimoiy tolerantlikni rivojlantirish inklyuziv ta’limning muhim psixologik-pedagogik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlik davrida inklyuziv ta’lim muhitida ijtimoiy tolerantlikni maqsadli rivojlantirish o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, shaxslararo munosabatlari va jamoadagi hamkorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishdagi keyingi empirik tadqiqotlar tolerantlikning rivojlanish mexanizmlarini chuqurroq anglash va ilmiy asoslangan amaliy dasturlarni yaratish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UNESCO. (1995). Declaration of principles on tolerance. https://www.unesco.org/en/legal-affairs/declaration-principles-tolerance
2. UNESCO. (2017). A guide for ensuring inclusion and equity in education. UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000248254
3. Allport, G. W. (1954). The nature of prejudice. Addison-Wesley.
4. Tajfel, H., & Turner, J. C. (1979). An integrative theory of intergroup conflict. In W. G. Austin & S. Worchel (Eds.), The social psychology of intergroup relations (pp. 33–47). Brooks/Cole.
5. Pettigrew, T. F., & Tropp, L. R. (2006). A meta-analytic test of intergroup contact theory. Journal of Personality and Social Psychology, 90(5), 751–783. https://doi.org/10.1037/0022-3514.90.5.751

6. Bronfenbrenner, U. (1979). The ecology of human development: Experiments by nature and design. Harvard University Press.
7. https://www.scopus.com/pages/publications/105041520898?origin=resultslist
8. https://www.in-academy.uz/index.php/SI/article/view/53088
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20775849

SPONTANEOUS ONLINE SHOPPING AS A STRESS-COPING MECHANISM Alena Garber., Railya Kereyeva	6
HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA IJOBIY IMIJINING PSIXOLOGIK JIHATLARI Ravshanov Lochinbek Urinovich	14
ALFRED ADLER INDIVIDUAL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS SIBLING MAQOMI TALQINI G‘ayibova Nargiza Anorbayevna	20
QANDLI DIABETGA CHALINGAN SHAXSLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIK VA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI Sadikova Umida Botirovna	27
O‘QITUVCHILARDA KASBIY STRESSNING YUZAGA KELISHIGA TA’SIR ETUVCHI INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK OMILLAR Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna	35
OLIY TA’LIMDA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi	43
O‘SMIRLIK DAVRIDA INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA IJTIMOIY TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK MOHIYATI Mirsidikova Aziza Mirvohidovna	50
HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYANI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI Qodirov G‘olibjon Tolibjon o‘g‘li	63
TA’LIM JARAYONIDA DEONTOLOGIK TAMOYILLAR ASOSIDA NIZOLARNI BOSHQARISH Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	70
PEDAGOGIK TAFAKKUR TARIXIDA FIKR TARBIYASI: YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMDA QO‘LLANISH IMKONIYATLARI Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna	78

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LINGVOMETODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH **Yuldasheva Umida Maxmudovna**	**85**
KURSANT VA TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA EKSTREMAL SHAROITLARDA HARAKAT QILISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI **Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich**	**92**
SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING AXBOROT KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI **Sayfullaeva Dilbar Izzatillaevna**	**101**
KASBIY MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING IMKONIYATLARI **Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi**	**110**
“TARBIYA” DARSLARIDA RAQAMLI HIKOYALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA HALOLLIK, MAS’ULIYAT VA MEHR-OQIBAT FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH **Abdullayeva Surayyo Babojonovna**	**119**
O‘ZBEKISTONDA KIMYO O‘QITISH METODIKASINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY TARAQQIYOTI **Sulaymonqulov Islomjon**	**131**
GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY HIMOYA TERMINOLOGIYASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNI MILLIY TERMIN SHAKLIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI **Elmirzayeva Maftuna Do‘smurod qizi**	**136**

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI SHE’RIY ASARLAR TAHLILIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 145
Mullayeva Madina Qudratovna